
Buvayda tumanida Qishloq xo'jaligi xodimlari kuni munosabati bilan tantanali bayram tadbiri tashkil etildi

“Grand” tantanalar saroyida Qishloq xo'jaligi xodimlari kuni munosabati bilan bayram tadbiri tashkil etildi. Tadbirda Tuman hokimi Behzodjon Ibragimov, Tuman sektor rahbarlari, tumanimiz qishloq xo'jaligi sohasi ilg'or vakillari ishtirok etdilar

Tadbirni ochib bergan Tumanimiz hokimi Behzodjon Ibragimov, soha xodimlarini bugungi kasb bayrami – Qishloq xo'jaligi xodimlari kuni bilan samimiy muborakbod etdi.

Bu yil 18.146 tonna paxta xomashyosi yetishtirilib, Tumanimiz Vodiya birinchi bo'lgani alohida ta'kidlandi.

Tadbirda qishloq xo'jaligi sohasida yuqori ko'rsatkichlarga erishgan bir guruh fermerlarga hamda sohaning ilg'or xodimlariga “Qishloq xo'jaligi fidoyisi”, “Ilg'or fermer” ko'krak nishonlari hamda Tuman hokimining faxriy yorliqlari, esdalik sovg'alari topshirildi.

Bayram tantanasi elimiz ardog'idagi xonandalar tomonidan ijro etilgan diltortar taronalar bilan davom etdi. (<https://t.me/+KAbEvOZiupA5N2Yy>)

2023-12-11 09:39:37